



## REJISSORLIK TARIXI

**Abdurahmonov Davirbek Abdurashid o'g'li,**  
*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti  
Farg'ona mintaqaviy filiali "Musiqiy rejissyorlik  
teatri" yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Teatr san'ati kafedrası dotsenti.*

**Dehqonov Ravshan Davlatalievich.**

**Annotatsiya:** Maqolada rejissorlik tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, antik teatlarda rejissorlik vazifalarini bajaruvchi shaxslar, rejissorning hozirgi kunda sahna xayotida tutgan o'rni va ahamiyati, talabalarni rejissor qilib tarbiyalashda e'tibor qaratiladigan ijobiy yo'nalishlari haqida ma'lumot yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Rejissor, xor artisti, badiiy jamoa, rejissorlik kasbi, aktyorlar jamoasi, pyesa, havaskor rejissor, sahna asari, ijodiy jarayon, jonli harakter, ma'naviy dunyoqarash, spektakl.

Rejissor tashkilotchi va badiiy jamoa rahbari sifatida maydon tomoshalari, teatr spektakllarini sahnalashtirishda hamda kino filmlar yaratishda hamisha yetakchi shahs bo'lgan. Rejissor san'ati o'z ichiga spektaklning turli unsurlarini uyg'unlashtirish orqali yagona yechimga ega badiiy sahna asar yarata olishi bilan baholanadi. Ushbu maqsadga erishi uchun rejissor o'z niyatini sahnalashtirish jarayonida ishtirok etadigan barcha ijodiy jamoani yagona maqsad sari safarbar eta olishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaralganda rejissorlik san'ati garchand u davrda boshqacha nom bilan atalgan bo'lsada, alohida san'at turi sifatida uzoq tarixga ega.

Rejissura tarixi bilan shug'ullangan Adolf Vindingning ta'kidlashicha antik teatrdan ham rejissorning qo'li bo'lgan va bu vazifani Xor yetakchisi bajargan. Sahnaga chiquvchi tartibi, maydonda joylashuvi, raqs va harakat turlari, kostyumlar, niqoblar, musiqiy chiqishlar, tabiiy tovushlar o'rni Xor yetakchisi tomonidan belgilanib, spektakl jarayonida ularni tartibga solib turilgan. Ana shu bizning hozirgi tilimizdagi rejissor vazifasiga kirgan. Jumladan Aristofan o'z komediyalarini o'zi sahnalashtirgan. Yetakchi shahsning vazifasiga she'rlarni qanday o'qishlikni o'rgatish, pantomima, plastik harakatlarni qanday bajarishlikni o'rgatish, personajlarning har birini o'ziga hos gapirish ohanglarini o'rgatish ham boshqaruvchining zimmasida bo'lgan. Gretsiyadagi amfiteatrlarda namoyish etilgan spektakllarda asosan teatr



tomoshalari ko'rsatilgan bo'lsa, Italiya amfiteatrlaridagi spektakllar o'zining ko'lami, ommaviyligi, namoyish etiladigan o'yinlarning hilma-xilligi bilan ajralib turgan. Rejissor tushunchasi K.S.Stanislavskiy uning shogirdlari Meyrxold, Vaxtanogov, Tairov hamda Mannon Uyg'ur boshliq bir guruh Moskva teatr studiyasining bitiruvchi talabalari bilan o'zbek milliy teatriga kirib kelgan. Bu davrga qadar jadidlar tomonidan sahnalashtirilgan "Padarkush" (Behbudiy), "Advokatlik osonmi?" (Avloniy), "Zaharli hayot" (Hamza) kabi spektakllarda rejissor vazifasini muallifning o'zi yoki o'qituvchi bajargan bo'lib, rollar taqsimoti, aktyorlarga qaerdan chiqib, qanday gapirish va hokazolarni o'rgatgan. Aksariyat hollarda aktyorlarning o'zi pyesa so'zlarini yod olib, tomosha ko'rsatishgan. Ish boshi rejissor esa kim qanday kiyim kiyishi, qaerdan kirishi, qaysi joyda o'tirib-turishi, qaerda chiroq yoqib, qaerda musiqa chalinishini nazorat qilib turgan.

Rejissor – spektakl, ommaviy tomoshalar, turli badiy jamoalar, film, tele va radio ko'rsatuv va eshittirishlarini, estrada va sirk dasturlarini sahnalashtiruvchi shaxs hisoblanadi. Rejissorlik kasbi, bilim doirasi, layoqati, estetik qarashlari, va uning vazifalari to'g'risida fikr bildirganda avval uning tarixiga bir nazar solinadi. Qadimdan rejissyorlik kasbi o'z nomi bilan atalmagan bo'lsada uning vazifalari teatrdagi yetakchi aktyor, pyesa muallifi yoki teatr direktori tomonidan bajarilganligini aytib o'tdik. Antik teatrdam ham rejissorning vazifasini Xor yetakchisi bajarib kelgan bo'lsa, XVIII asrning oxirlariga kelib rejissura professiya sifatida Germaniyada shakllana boshladi. Rejissor so'zini Gyote birinchi bo'lib ifoda etdi. Gyote rejissor sifatida birinchi bo'lib spektaklning umumiy ko'rinishi, sahna asarining badiy yaxlitligiga etibor qaratdi. U spektaklning badiy uslubi orqali tomoshabinga ta'sir ko'rsatish yo'llarini izladi. U o'z aktyorlaridan tasviriy san'atlarda aks ettirilgan qahramonlarning ko'rinishi, haykaltaroshlar ijodidagi haykallarda qahramonlarning turishi, o'z gavdalarini ko'z-ko'z qilishi va aktyor uchun namuna bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surgan. U tomoshabinlarga nafaqat aktyorlik ijrosi orqali, shuningdek, ayrim sahnalarning badiy yechimi, sahnaviy manzaralarning rang-barangligi, orqali ham ta'sir ko'rsatilsa, aktyor kamchiliklari yopilib ketadi deb fikrlaydi. Gyote rejissor sifatida sahnada spektaklga xizmat qilmaydigan bo'sh joy bo'lmasligi kerak deb hisoblaydi. Gyote spektakl dekoratsiyasi, kostyum, grimlarga ham alohida e'tibor qaratgan bo'lib, bu unsurlar spektakl badiy yaxlitligiga yordam berishi kerak, deb o'ylaydi.



Teatr san'atida ham adabiyot, tasviriy san'at va musiqa kabi jamiyatda o'z o'rnini egallay boshlashi bilan, professional rejissuraga kuchli extiyoj tug'iladi.

Rejissyorlik dastlab ikki yo'nalishda shakllana boshlaydi .

1) Ekgofa. Bu rejissor Korolini Neyber truppasida ishlagan va o'z qarashlarini shu truppa ishtirokchilari bilan amalga oshirgan.

2) Shreyder. U o'z qarashlarini germaniyaning turli teatr trupparida tatbiq eta boshlaydi.

Biroq har ikkala rejissor uslublarini Gyote umumlashtirgan holda yagona rejissorlik maktabi yo'nalishini nazariy jihatdan ishlab chiqadi.

Gyotening qarashlari quyidagicha edi:

-Sahna asarining spektakl sifatida yaxlit g'oyaviy yo'nalishi va mukammal shaklga ega bo'lishi zarur. Tomoshabinga ta'sir ko'rsatish uchun rejissor turlicha usullar ishlab chiqishi kerak. Aktyorlarning ta'sirli ijrosini ta'mitnlash uchun tasviriy san'at va xaykallar shakli va holatini o'rganish zarur. Sahnada yurish-turish, baxs munozara olib borish, kirib-chiqishlar teatr san'ati talablariga javob berishi kerak bo'lib u kundalik xayotiy shakldan farq qilmog'i lozim. Spektakl tomoshabinga faqat aktyorlar ijrosi bilangina emas, badiiy bezagi, yaxlit yechimi bilan ham ta'sir o'tkazmog'i zarur.

Pyesa bilan ishlashda avval asarni yaxshilab o'rganish, rollarni tahlil etish so'ngra aktyorlar bilan stol atrofida har bir obraz ustida erinmay ishlash kerak. Chunki bu jarayon repetitsiya jarayonining eng muhim bo'g'ini sifatida qaralishi kerak. Sahnada bir qarich ham bo'sh joy qolmasligi kerak

Shu maqsadda Gyote o'z asarlari uchun o'zi mizansahnalarni maydachuydasigacha ishlab chiqqan va aktyorlardan shunga e'tibor berishlikni talab qilgan. U sahna ishtirokchilarini yarim doira shaklida harakatlanishlarini maslahat bergan. "Mizansahnalar doimo uzluksiz o'zgarib turishi kerak Spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlash uchun esa kiyimlar, chiroqlar, turli shovqilardan foydalangan holda ularni bir uslub, bir janrga bo'ysindirish kerak" degan.

O'n to'qqizinchi asrga kelib Venadagi Burg teatrining ijodiy yo'nalishida o'zgarish paydo bo'la boshlaydi. Teatrning badiiy rahbari Shrey Fogel o'z ustoz Zonnelfels nazariyasini amalda tatbiq eta boshlaydi. U teatrni yagona ijodiy jamoa sifatida shakllantirishga erishadi. Barcha ijodkorlar bir maqsadga hizmat qilish kerakligini amalda isbotlashga harakat qiladi. Aktyorlarda pauza-(tin olish sukut )dan unumli foydalanish kerakligini va uning natijasini amalda isbotlaydi. Aktyor tomonidan ijro etilgan har bir rol pyesa tarkibidan ajralmasligi, obraz-timsol



o'zining yaxlitligi bilan asarga hamohang bo'lishi, bu hamoahnaglik butun spektakl davomida uzluksiz harakat orqali tomoshabinga sezilib turishi kerak degan fikrni olg'a suradi. Buning uchun avval pyesa bo'laklarga bo'linib ishlanishi so'ngra rejissor shu bo'laklarni birlashtirib bir butun yaxlit spektakl hosil qilishi kerak, deydi.

XIX asrga kelib rejissurada yangidan mustaqil qarashlar paydo bo'lishi Germaniyadagi Burg teatrida kasbdosh rejissorlar guruhini tashkil topishiga sabab bo'ldi. O'sha davrdagi Burg teatri rahbari Shrey Fogel bu guruhga rahbarlik qiladi. Navbatdagi bosqich, Germaniyada Shekspir teatrini tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Bu teatrni tashkil etilishi Immerman, Yogan, va Tik kabi buyuk reformator rejissyorlarni maydonga chiqishiga sababchi bo'ldi. Ular rejissura tarixida alohida o'rin egallaydilar.

Rejissyorlik xozirgi kunga kelib anchagina rivojlanib ketgan kasb hisoblanib, unga qo'yiladigan talablarga mos bo'lishi kerak. Hozirgi texnika rivojlangan, kompyuter asri bo'lishiga qaramay kuchli mutahassis rejissorga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Buni kino san'ati, televideniya, teatrlar, ommaviy bayram tadbirlarida ham yosh mutahassislarning yetishmasligi yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda. Biz rejissorlarni tarbiyalashda haqiqiy iste'dod egalarini saralash, qobilyatli, tashkilotchilik, ijodkorlik, sezgirlik, yaratuvchanlik, tasviriy san'at, musiqa, adabiyot, she'riyatni yaxshi tushunadigan, milliy an'analarni, xalq san'ati ijodiyotining turli sohalaridan habardor bo'lgan farzandlarimizni havaskor rejissorlardan farqlay olishimiz zarur.

Biz rejissyorlarni tarbiyalashda dastlabki ishni rejissyorlik kasbining tarixi va uning rivojlanish bosqichlarini, uning asoschilarini o'quvchiga tanishtirishdan boshlashimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi, zero tarixni bilmay turib kelajakni mustahkam qura olmaydi. Rejissura olamida yangiliklar yaratish, yangi-yangi ijodiy parvozlar qilish ushun tarixiy bilimlar katta ahamiyatga egadir.

### **Adabiyotlar:**

1. Usmonov R. Rejissura T: 1997
2. Qobilov H. Musiqali teatr rejissyorligi. T: 2021
3. Abdullayeva M. Rejissura T: 2016
4. Jo'ra Mahmud. Rejissura tarixi va nazariyasi T: 2020
5. Abdullayeva M. Sahna mahorati maktabi T: 2014